O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TALIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
KIRIM № 163
« 6 » 09 2021 y.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI REKTORINING BUYRUG'I**

2021 yil «6» sentabr № 162-B Urganch sh.

**Universitetda Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida**

Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021 yil 26 avgustdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida"gi 373-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

**BUYURAMAN:**

**1.** Barcha prorektorlar, bo'lim boshliqlari, fakultet dekanlar, kafedra mudirlari, universitet tasarrufidagi o'rta maxsus, professional ta'lim muassasalari direktorlariga:

1.1. Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 26-avgustdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida Komplayens nazorat tizimini joriy etish va korrupsiyaga qarshi kurashishni takomillashtirish to'g'risida"gi 373-sonli buyrug'i rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

**2.** Vazirlikning 2021-yil 26-avgustdagi 373-sonli buyrug'iga asosan O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish to'g'risidagi Nizom" (1-ilova);

2.1. "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha koordinator to'g'risidagi Nizom"( 2-ilova);

2.2. "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida manfaatlar to'qnashuvini boshqarish to'g'risidagi Nizom" (3-ilova);

2.3. "O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimida korrupsion xavf-xatarlarni baholash uslubiyoti"( 4-ilova) tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

**3.** Yuqorida ko'rsatilgan hujjatlarning mazmun-mohiyati haqida rahbar-xodimlar, professor-o'qituvchilar hamda talaba-yoshlarga targ'ibot materiallari tayyorlansin va tushuntirish ishlari tashkil etilsin.

**4.** Universitetda mavjud korrupsion xavf-xatarlar asosida o'zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlari; korrupsion xavf-xatarlarni minimallashtirish borasida samarali profilaktik choralar, korrupsion xavf-xatarlar darajasini baholash uslubiyotidan foydalangan holda korrupsion xavf-xatarlar darajasini baholab borish ishlari joriy etilsin.

**5.** Yoshlar masalalari va ma'naviy-ma'rifiy ishlari bo'yicha prorektor (S.Davletov) va Korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens-nazorat" tizimini boshqarish bo'limi boshlig'i (X.Shixova)larga:

5.1. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni har chorakda *(chorak tugagandan keyingi oyning 10 sanasigacha)* vazirlikning Komplayens-nazorat va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘limiga taqdim qilib borish vazifalari yuklatilsin.

5.2. Korrupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning joriy holati bo‘yicha o‘rganishlar o‘tkazilishi ta’minlasin va o‘rganish natijalari bo‘yicha universitet rahbariyatiga ma’lumot kiritib borilsin.

**6.** Devonxona mudiriga:

-mazkur buyruq o’rnatilgan tartibda barcha prorektorlar, bo’lim boshliqlari, fakultet dekanlar, kafedra mudirlari, universitet tasarrufidagi o’rta maxsus, professional ta’lim muassasalari direktorlariga yetkazilsin.

**7.** Mazkur buyruq ijrosi nazoratini o‘z zimmamda qoldiraman.

**Asos:** Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining 2021-yil 26-avgustdagi 373-sonli buyrug‘i

**Rektor** **B.Abdullayev**